

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, vazirlik tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo‘yicha 2020-2021 yillarga muljallangan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbariyati tomonidan 2020-yil avgust oyida tasdiqlandi.

Mazkur Yo‘l xaritasiga asosan Moliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish maqsadida vazirlik apparati tarkibiy tuzilmasida Komplayens-nazorati bo‘limi tashkil qilindi. Bugungi kunda vazirlik tomonidan mazkur bo‘limni tajribali va malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlat budjeti bo‘yicha

Davlat budjeti jarayonining shaffofligini oshirish hamda davlat budjeti xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishini ta‘minlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) Ochiq budjet (openbudget.uz) axborot portalida doimiy tarzda o‘tkazilayotgan davlat moliyaviy nazorati tadbirlari natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tashqi audit va baholashdan o‘tkazish natijalari to‘g‘risidagi xulosa ham joylashtirib borilmoqda. Bundan tashqari, davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlarining ijrosi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ochiq ma‘lumotlar portalida (opendata.gov.uz) joylashtirilmoqda.

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda PQ-4938-son “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Moliya vazirligi tomonidan Hisob palatasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda “Budjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruq loyihasi ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kelishish uchun yuborilgan;

3) O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-657-son “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasiga muvofiq birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar, davlat maqsadli jamg‘armalari, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi rasmiy veb-saytlariga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimoti, davriy moliyaviy hisobotlar, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi, davlat maqsadli jamg‘armalaridan subsidiyalar va kredit oluvchilari hamda o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni joylashtirishlari belgilangan bo‘lib, hozirgi kunda Moliya vazirligi

tomonidan vazirlik va idoralarning mazkur ma'lumotlarning joylashtirib borilishi xolatlari yuzasidan o'rganish ishlari amalga oshirilmoqda.

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-son "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, shuningdek, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yilmoqda;

5) Shuningdek, Ochiq budjet (openbudget.uz) axborot portalida fuqarolar uchun qayta aloqa tizimi joriy etilgan bo'lib, mazkur tizim orqali fuqarolar korrupsion xolatlari to'g'risida anonim tarzda xabar berishi yoki ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar yo'llash imkoniyatiga egalar.

Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi faoliyatini tashkil etish hamda uning ustuvor vazifalarini belgilash yuzasidan birinchi yig'ilishi o'tkazildi. (O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishining 2020-yil 20-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi) Unga muvofiq:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2025 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya" va "Milliy strategiya doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi" loyihasini ishlab chiqish belgilandi.

- O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2020 yil avgust-dekabr oylariga mo'ljallangan Ish rejasi tasdiqlandi.

- Sog'liqni saqlash va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali usullarini joriy etish maqsadida sog'liqni saqlash hamda davlat xaridlari sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha ishchi guruhlar tuzildi.

Milliy kengashning 2 yig'ilishida ish rejaning ijro etilish holati, Sog'liqni saqlash hamda Davlat xaridlari sohasida "korrupsiyasiz soha" loyihasini tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining nizomi va Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishni davom ettirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihalari bo'yicha muhokamalar o'tkazildi. (O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishining 2020-yil 21-noyabrda 2-sonli bayonnomasi) Unga muvofiq:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishni davom ettirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasi ko'rib chiqildi.

• Davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berildi.

Davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini tayyorlash va amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tomonidan davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarning “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Unda:

- Davlat xaridlari sohasida korrupsion xavf-xatarlarni va muammolarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar va tahlillar o‘tkazish, soha xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, jamoatchilik nazoratini ta‘minlash;

- Davlat xaridlari sohasida ijrochilar o‘rtasida halol raqobat muhitini yaxshilash, ma‘muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish;

- Davlat xaridlari sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganishlar va nazorat tizimini tashkil qilish, masofaviy monitoring o‘tkazish hamda javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash.

Shuningdek, davlat buyurtmachilarining javobgarligini kuchaytirish, ular tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirishda amaldagi qonun hujjatlari talablariga qat‘iy rioya etishini, sog‘lom raqobatga asoslanmagan savdolarni tashkil etilmasligini hamda barcha tadbirkorlik sub‘yektlariga teng imkoniyat yaratilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni belgilash bo‘yicha normalar kiritildi. (O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-666-son Qonuni)

Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish maqsadida davlat xaridlari markaziy axborot portalini yuritish bo‘yicha funksional talablar, davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan Tovarlarining (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatorini yuritish tartibi belgilandi. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi “Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 37-son qarori)

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan ma‘qullandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga kiritildi.

Davlat xaridlari sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, davlat xaridlari ishtirokchilariga qulayliklar va keng imkoniyatlar yaratish orqali xarid qilish tartib-taomillarini takomillashtirish maqsadida Qonun loyihasiga quyidagi mazmundagi asosiy yangiliklar kiritildi:

- murojaatnomada ta'kidlanganidek, yirik davlat korxonalari, ya'ni strategik ahamiyatga ega xo'jalik jamiyatlari va korxonalarining xaridlari ham qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda;

- davlat xaridlari bo'yicha parlament nazorati kuchaytirilib, har yilning yakuni bo'yicha audit va monitoring natijalarini Oliy Majlisga kiritish va ochiq axborot manbalarda e'lon qilib borish belgilanmoqda;

- davlat xaridlarini yanada ochiq va shaffof o'tkazish talablari, davlat xaridlari jarayonida inson omilini imkon qadar qisqartirish maqsadida 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab majburiy tartibda tender va tanlov savdolarini elektron tarzda tashkil etishni nazarda tutuvchi normalar kiritildi;

- xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi kiritilmoqda;

- xarid jarayonlarida yakuniy mulkdorlar (benefitsiarlar)ni ochiqlash majburiyati belgilandi;

- Davlat buyurtmachilariga davlat xaridlarini amalga oshirishda afillanganlik bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etib borish majburiyati yuklatilmoqda;

- Ishtirokchi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi elektron bozor, auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari bo'yicha bitta lotda ishtirok etishga haqli emasligi belgilanmoqda;

- Davlat xaridlari jarayonida ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchining vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega yoki davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb qilingan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo'lgan hollarda ishtirokchini davlat xaridlarida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi sharti kiritilmoqda.

O'zbekistonni halqaro reyting va indekslarini kutarish bo'yicha

Barchamizga ma'lum, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tashabbusi ijobiy qo'llab-quvvatlanib, qo'llab kelinmoqda.

Bizning asosiy maqsadimiz faqatgina xalqaro reytinglarda o'rnimizni oshirish emas, balki ulardan aholining farovonligi, institutsional imkoniyatlari va reytinglari bo'lib, maqsadlarga erishish uchun yaxshi qo'llanma sifatida xizmat qilishini ta'minlashdir.

Shuning uchun biz 2030-yilga mo'ljallangan samaradorlikning maqsadli ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqladik. Ushbu KPI tizimini hukumatning muhim tarmoqlarni isloh qilish va odamlarning yashashlari va bizneslarining farovonligi uchun yaxshi sharoitlar yaratish bo'yicha hisobga olinishi lozim.

Biz, islohotlar ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash uchun 2020-yilda "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" www.ratings.gov.uz – ochiq veb-portalini yaratdik.

Ayni vaqtda, bizda dastlabki natijalarga erishdik desak ham bo'ladi. COVID-19 pandemiyasi e'lon qilinishi bilan yuzaga kelgan vaziyatga qaramay, O'zbekiston 2020-yil davomida qator ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid xalqaro indekslarda, jumladan:

Me'ros jamg'armasining "Iqtisodiy erkinlik indeksi" – 26 pog'onaga (114-o'rin);

Jahon bankining "Logistika samaradorligi indeksi" – 19 pog'onaga (99-o'rin) va "Biznes yuritish indeksi"da 7 pog'onaga (69-o'rin);

BMT Taraqqiyot dasturining "Inson kamoloti indeksi" – 2 pog'onaga (106-o'rin) ko'tarildi.

Shu bilan birga, respublikamizning hanuzgacha qator xalqaro reyting ko'rsatkichlarida past darajada qolayotganini ham tan olishimiz kerak.

So'nggi yillarda bir qator ijobiy siljishlar bo'lgan bo'lsada, hukumat va jamoat korrupsiyani nazorat qilish, qonun ustuvorligi, qonun va hisobdorlik kabi murakkab ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun ancha harakat qilishi lozim.

Ushbu sa'y-harakatlar, o'z vazirliklarimizni isloh qilishdan, "korrupsiyaga nisbatan toqatsiz" muhitni yaratishdan boshlanishi shart. Shu maqsadda biz ushbu masalalar bo'yicha ixtisoslashgan ekspertlar bilan ishlayapmiz va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzolashni rejalashtirmoqdamiz.

Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni va moliya siyosatini amalga oshirish uchun moliyaviy munosabatlarni boshqarishning vositasi hisoblanadigan samarali davlat moliyaviy nazorat tizimini tubdan takomillashtirishni talab etadi.

1. Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-sonli "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan qo'shimcha yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida «UzASBO» dasturiy ta'minoti va boshqa dasturlardan keng foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan budjet tashkilotlarida monitoring va profilaktika hamda kameral nazorat tadbirlarini keng tadbir etilmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati organlar faoliyati samaradorligini oshirish budjet jarayonining shaffofligini oshirish hamda turli ma'lumotlar bazalardan foydalanish talab etiladi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan masofaviy nazorat va tahliliy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasi xajm va tarkib jixatidan juda kengligi sababli zamonaviy axborot texnologiyalari va maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositalarini keng qo'llashni joriy etishni taqozo etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Moliya vazirligi tomonidan "Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish yuzasidan kameral nazorat" dasturiy ta'minoti bo'yicha texnik topshiriq loyihasi ishlab chiqilgan.

2. Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturiga asosan "Davlat ichki nazorati va ichki auditi to'g'risida"gi qonun loyihasi Moliya

vazirligining 2019-yil 18-noyabrdagi 02/03-03-06-31/1922-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan.

Shuningdek, Moliya vazirligida ishchi guruh tomonidan “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan. Lekin, bu qonun loyihasini boshqa mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bunda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda asosiy e‘tibor profilaktika ishlariga qaratilishi hamda vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 13-iyuldagi 02-2089-son topshirig‘iga asosan mazkur qonun loyihasini ishlab chiqish muddati 2020-yil 1-dekabrga qadar uzaytirilgan.

Qonun loyihasini sifatli va ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqish maqsadida xalqaro ekspertlarni jalb etish hamda ularni mamlakatimizga tashrifi masalasida tegishli ishlar boshlab yuborilgan bo‘lsada pandemiya oqibatida muammolar yuzaga kelganligi sababli xalqaro ekspertlarni jalb qilish ishlari noyabr oyiga qadar kechikdi.

Shunday bo‘lsada, davlat moliyaviy nazorati tizimini isloh qilish bo‘yicha xalqaro ekspertlarni jalb etish masalasida Jahon bankining “Institutsional salohiyatni oshirish” loyihasi doirasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat sektorida ichki nazorat va ichki auditni isloh qilish” komponenti bo‘yicha xalqaro tender e‘lon qilingan. Xozirda ushbu tenderning yakuniy jarayonlari amalga oshirilmoqda. Yakuniy baholashlarga ko‘ra tenderda “Price waterhouse coopers (PWC)” kompaniyasi g‘alaba qozondi va bugungi kunda u bilan shartnoma tuzishishlari yakunlanmoqda.

Shu bilan birga, o‘tgan davr mobaynida, qonun loyihasini ishlab chiqishga qadar davlat moliyaviy nazorati tashkiliy tuzilmasini belgilash hamda vazifalar taqsimotini amalga oshirish maqsadida Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat moliyaviy nazorati tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi ishlab chiqildi hamda kelishish uchun manfaatdor vazirlik va idoralarga yuborildi. Ushbu loyihaga Hisob palatasi tomonidan o‘z takliflari taqdim etilganligi sababli bugungi kunda ushbu yo‘nalishda muhokamalar davom etmoqda.

Shuningdek, ilg‘or xalqaro tajribada davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risidagi qonunlarda vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyati qamrab olinganligi sababli ishlab chiqilishi rejalashtirilgan “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi va “Davlat ichki nazorati va ichki auditi to‘g‘risida”gi qonunlar loyihalarini birlashtirgan holda “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.